

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MASOFAVIY VA GIBRID MEHNATNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

JO'RAYEVA SHAXNOZA RUSTAMOVNA

O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi

akademik litseyi kadrlar bo'limi noziri

shaxnozajurayeva83@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini masofaviy va gibridd shakllarda tashkil etishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi¹ va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun² doirasidagi huquqiy bo'shliqlar, xususan, kiberxavfsizlik, xodimlarning "aloqada bo'lmaslik huquqi" hamda ish vaqtini raqamli KPI orqali baholash muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Davlat fuqarolik xizmati, masofaviy mehnat, gibridd mehnat, raqamlashtirish, Mehnat kodeksi, axborot xavfsizligi, KPI.

KIRISH

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatida masofaviy va gibridd mehnatni huquqiy tartibga solish eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatida masofaviy va gibridd mehnatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari katta ahamiyatga ega. Mavzuning ahamiyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi global miqyosda mehnat munosabatlarining transformasiyasiga olib kelishi bilan aniqlanadi. Ayniqsa, ommaviy raqamlashtirish sharoitida an'anaviy ma'muriy-buyruqbozlik va doimiy ofis (ish joyi) rejimiga asoslangan davlat apparati boshqaruvi ham moslashuvchan mehnat mexanizmlariga ehtiyoj sezmoqda.³

Ma'lumki, Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mehnat munosabatlarining an'anaviy shakllarini o'zgartirmoqda. Koronavirus (COVID-19) pandemiyasi davrida boshlangan masofaviy mehnat tizimi bugungi kunda barqaror gibridd shaklga aylanib ulgurdi. Gibridd va masofaviy mehnat shakllari nafaqat davlat budjeti xarajatlarini (kommunal, kanselyariya va moddiy-texnik ta'minot) optimallashtiradi, balki davlat xizmatining jozibadorligini va inson kapitali samaradorligini oshirishga ta'siri katta.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ilk bor masofaviy mehnatni tartibga soluvchi maxsus normalar (452-466-moddalar) o'z aksini

¹ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2022. www.lex.uz

² O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022. www.lex.uz

³ Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. - World Economic Forum, 2016. - P. 45-48.

topdi.⁴ Shunga qaramay, mazkur qoidalar umumiy xarakterga ega bo'lib, davlat fuqarolik xizmatining o'ziga xos subyektlar tarkibi, maxsus huquqiy maqomi va milliy xavfsizlik (davlat sirlarini saqlash) jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasiga ko'ra, davlat xizmatchilarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan mehnat munosabatlari Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.⁵ Biroq, davlat fuqarolik xizmati o'ziga xos huquqiy maqomga, qat'iy intizomga va davlat sirlari bilan ishlash tizimiga ega. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda masofaviy va gibril mehnatni tashkil etishning huquqiy mexanizmlari to'liq ochib berilmagan. Bu esa ushbu sohada huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi, raqamli transformatsiya davrida O'zbekistonda davlat xizmatchilari faoliyatini moslashuvchan shakllarda tashkil etishning huquqiy muammolarini aniqlash hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida yaxshilash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarishimiz kerak.

Birinchidan, Huquqiy bo'shliqlarni tahlil qilish: Amaldagi Mehnat kodeksi va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun o'rtasidagi nomuvofiqliklarni, xususan, "gibril mehnat" tushunchasining huquqiy maqomi yo'qligini aniqlash.

Ikkinchidan, Kiberxavfsizlik va davlat siri himoyasini muvozanatlash: Davlat xizmatchisi uydan yoki masofadan ishlaganda maxfiy ma'lumotlar bilan xavfsiz ishlashining huquqiy mexanizmlari va javobgarlik chegaralarini belgilash.

Uchunchidan, Xodimlarning huquqiy himoyasini ta'minlash: Masofaviy ish tizimida ko'p kuzatilayotgan ish vaqtidan tashqari mehnatga majburlash holatlarining oldini olish uchun qonunchilikka "Aloqada bo'lmaslik huquqi" normasini kiritish zaruratini asoslash.

To'rtinchidan, Davlat xizmatida zamonaviy gibril mehnat modellarini huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun Buyuk Britaniya va Estoniya tajribasiga tayanib, O'zbekiston davlat organlari uchun maxsus nizom loyihasini ishlab chiqish lozim. Mazkur tizim doirasida xodimlarni asossiz va noqonuniy nazorat qilish (kamera, skrinshotlar) o'rniga, ularning mehnatini raqamli KPI ko'rsatkichlari orqali xolis baholash mexanizmini joriy etish taklif etiladi.

Qisqa qilib aytganda, maqolaning pirovard maqsadi-davlat apparati samaradorligini oshirish, byudjet mablag'larini tejash va malakali kadrlarni jalb qilish uchun davlat xizmatida masofaviy va gibril mehnatning xavfsiz hamda adolatli huquqiy poydevorini yaratishdir.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2022. - 452, 457, 459-moddalar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022 yildagi O'RQ-788-son. 2-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

ASOSIY QISM

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan rivojlangan davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Singapur va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatida gibridd mehnatni tartibga solish uchun maxsus qonunchilik asoslari va ichki idoraviy reglamentlar joriy etilgan⁶. Ularda masofadan turib ishlashi mumkin bo'lgan lavozimlar ro'yxati, ish vaqti hisobi va kiberxavfsizlik qoidalari aniq belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyalarida masofaviy mehnat sharoitida ham xodimlarning teng huquqliligi hamda mehnat muhofazasi kafolatlanishi shartligi ta'kidlanadi⁷.

Masofaviy va gibridd mehnat shakllari xususiy sektorda tez ommalashgan bo'lsa ham, davlat fuqarolik xizmatida ularni joriy etish bir qator o'ziga xos huquqiy va tashkiliy cheklovlar bilan to'qnash keladi. Davlat xizmatchisining faoliyati bevosita davlat funksiyalarini bajarish, fuqarolarga xizmat ko'rsatish va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq.

O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud holat va bo'shliqlarga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida masofaviy ish tushunchasi va uni rasmiylashtirish tartibi alohida bob sifatida mustahkamlab qo'yildi⁸. Kodeksga ko'ra, masofaviy ish xodimning mehnat shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarini ish beruvchi joylashgan hududdan tashqarida bajarishini anglatadi. Biroq, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda masofaviy yoki gibridd mehnat mexanizmlari, ularni davlat organlarining o'ziga xos tizimida qo'llash shartlari alohida moddalarda o'z aksini topmagan⁹.

Hozirgi kunda davlat organlarida ushbu mehnat shaklini qo'llashda quyidagi huquqiy va amaliy muammolar ko'zga tashlanmoqda:

Birinchidan, lavozimlar tasnifi yo'qligi. Qaysi davlat xizmatchilari masofadan ishlashi mumkinligi (masalan, tahlilchilar, yuristlar) va kimlar faqat ish joyida bo'lishi shartligi huquqiy mezonlar bilan ajratilmagan.

Ikkinchidan, ish vaqtini nazorat qilish va "aloqada bo'lmaslik huquqi". Masofadagi xodimning ish vaqti davomiyligini aniq hisobga olish va ish vaqtidan tashqari paytda "aloqada bo'lmaslik huquqi"ni ta'minlash qonundan mukammal tartibga solinmagan¹⁰.

⁶ Eurofound and International Labour Office (2017). Working anytime, anywhere: The effects on the world of work. Publications Office of the European Union, Luxembourg and ILO, Geneva. - P. 25-30.

⁷ Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). Masofaviy mehnat sharoitida munosib mehnat prinsiplarini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar. - Jeneva, 2020.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. (2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan). XIX bob. "Masofaviy ishni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari". - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 8-avgust, O'RQ-788-son. - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

¹⁰ Sultonov A. Raqamli mehnat huquqi: masofaviy xodimlarning aloqada bo'lmaslik huquqi (Right to disconnect). "Yuridik fanlar axborotnomasi" jurnali, 2024. - №3. - B. 45-50.

Uchinchidan, Moddiy-texnik ta'minot va kompensatsiya. Davlat xizmatchisini xizmat kompyuteri, xavfsiz internet aloqasi bilan ta'minlash hamda uydan ishlaganda sarflangan kommunal xarajatlarni kompensatsiya qilishning budjet tizimidagi huquqiy mexanizmi aniq emas.

To'rtinchidan, axborot xavfsizligi. Davlat siri yoki xizmat siri hisoblangan ma'lumotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlari bilan uydan turib ishlashning huquqiy oqibatlarini tizimlashtirilmagan¹¹.

Davlat fuqarolik xizmatida gibril va masofaviy mehnatni tizimli yo'lga qo'yish hamda huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida quyidagi islohotlarni amalga oshirish taklif etiladi.

-“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonun¹²ga qo'shimchalar kiritish. Qonunga davlat xizmatida gibril va masofaviy mehnatni qo'llashning prinsiplari, shartlari hamda cheklovlarini belgilovchi maxsus modda qo'shish zarur.

-Namunaviy nizom ishlab chiqish. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (ARGOS) tomonidan “Davlat organlarida masofaviy va gibril mehnatni tashkil etish to'g'risida”gi namunaviy nizomni ishlab chiqish va unda gibril grafik shartlarini belgilash¹³.

-“Aloqada bo'lmaslik huquqi”ni joriy etish. Ish vaqtidan tashqari vaqtda rahbarlar tomonidan raqamli vositalar orqali xodimlarga topshiriqlar berilishini qonundan cheklash. Bu davlat xizmatchilarining professional emotsional holatini oldini oladi.

-KPI va raqamli nazorat tizimi. Ishga kelib-ketish vaqtini shunchaki mexanik nazorat qilishdan (biometrika, face-ID) natijadorlikni (KPI) baholashga asoslangan raqamli tizimga to'liq o'tish lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijasida davlat fuqarolik xizmatida masofaviy va gibril mehnat shakllarini huquqiy tartibga solish shunchaki zamonaviy trend emas, balki davlat apparati samaradorligini oshirish va iqtidorli kadrlarni jalb qilishning muhim institutsional omili ekanligi aniqlandi. Demak, hulosasi qilish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqot mavjud mehnat qonunchiligi va davlat xizmati to'g'risidagi maxsus qonunchilik o'rtasidagi huquqiy kolliziyalar bilan uning huquqiy bo'shliqlarini bartaraf etish zarur. Davlat organlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xodimlarning huquqlari va axborot xavfsizligi muvozanatini ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani yaratish lozim. Taklif etilayotgan huquqiy o'zgartirishlar davlat

11 O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son. – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

12 O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-95-son Farmoni. “Davlat fuqarolik xizmatini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz

xizmatida ortiqcha byurokraziyani kamaytirishga, ma'muriy budjet mablag'larini tejashga hamda xodimlarning ish va shaxsiy hayot muvozanatini yaxshilashga xizmat qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2022. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
3. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. - World Economic Forum, 2016. - P. 45-48.
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2022. 452,457,459-moddalar. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022 yildagi O'RQ-788-son. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
6. Eurofound and International Labour Office (2017). Working anytime, anywhere: The effects on the world of work. Publications Office of the European Union, Luxembourg and ILO, Geneva. - P. 25-30.
7. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). Masofaviy mehnat sharoitida munosib mehnat prinsiplarini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar. - Jeneva, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. (2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan). XIX bob. "Masofaviy ishni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari". O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 8-avgust, O'RQ-788-son. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
10. Sultonov A. Raqamli mehnat huquqi: masofaviy xodimlarning aloqada bo'lmaslik huquqi (Right to disconnect). "Yuridik fanlar axborotnomasi" jurnali, 2024. - №3. - B. 45-50.
11. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
12. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-95-son Farmoni. "Davlat fuqarolik xizmatini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz